

**AMIR TEMUR O'GITLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI****Mangliyeva Shahlo Qahramonovna***Toshkent shahar Uchtepa tuman 296-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola mazmun - mohiyatida buyuk bobomiz Amir Temur ma'naviy merosini o'rganilib, uning tarbiyaviy ahamiyatga molik o'gitlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lif-tarbiya, aloqalar, adolat, ta'lif jarayoni, ma'naviy meros, insonparvarlik, odob-axloq, iymon\_e'tiqod, yuksaklik, mukammallik, el-yurt osoyishtaligi.*

Buyuk davlat arbobi, kuragi yer ko'rмаган саркада, qонуншунос, ruxshunos, notiq, iste'dodli me'mor va adolat ustiga barpo etilgan yurt asoschisi Sohibqiron Amur Temurning dunyo taraqqiyotida tutgan о'rni beqiyosdir.

Yurtimiz farovonligi, tinchligi uchun umrini tikkan va uni jahonga mashhur qilgan buyuk insonning jang-u jadal va tahlikaga to'lib-toshgan hayoti va faoliyatini garchand qisqa va umumiylar tarzda kichik bir maqolada yoritib berish qiyin bo'lsa-da, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirishimiz lozim

Amir Temur ko'plab mashhur tarixchilar tomonidan e'tirof etilganidek, ilm-fanni qadrlaydigan, uning rivojiga sodiq, dunyoning yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemalol muloqot qila oladigan dono hukmdor bo'lgan. Amir Temur tarix sahifalarida Aleksandr Makedonskiy, Dariy Perviy, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorda turishini bilamiz. Sohibqironning buniyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Qo'hna tarixdan ma'lumki, bu dunyoda juda ko'p jahongirlar bo'lishgan. Buyuk bobokolonimiz Amir Temurning ulardan farqli tomoni shundaki, u umr bo'yini buniyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan.

Sohibqironning "Qay bir joydan bir gisht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim" degan so'zlari buning yorqin isbotidir.

O'sha davrda Yevropa va Osiyoda mo'g'ul-tatarlarning, ayniqsa, Chingizxonning istilochilik urushlari, uning oqibatlari qariyb 300 yil davom etadi. Bunday qullikdan ozod etish, mustaqil davlatlar sifatida rivoj topish va madaniyatning taraqqiy etishida Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari tarixiy jihatdan muhim ahmiyatga egadir. Amur Temur davrida zaminimiz Turkiston obod diyorga aylandi. Yanada rivojlanayotgan Turkiston ilm-fan va madaniyati rivojlangan davlatlar qatoridan o'rinni olgan edi. Amur Temurning sa'y-harakati bilan obod etilgan shaharlar, qishloqlar, karvon saroylarni Shahrabsabz, Buxoro, Samarcand shaharlarida qad ko'targan imoratlar, "Temur va Temuriylar davlati", "Temuriy madaniyati", "Ulug'bek va Samarcand" kabi tushunchalarni dunyoga kelishi va dunyo xalqlari tarixiga oltin harflar bilan yozilishi ham Amir Temur nomi bilan bog'liqdir.

Tarix zarvaraqlarida yozilishicha, Sohibqiron Amir Temurning eng xarakterli xususiyatlari davlat, mamlakatga g'amxo'rilik qilguvchi hamda fuqarolarga muruvvat ko'rsatguvchi bo'lganidir. Jahongirlik qoidasiga kelsak, haqiqat – sihat-salomatlik, haqiqat – tartib, haqiqat – adolat deb e'tirof etilgan. Sohibqiron Amir Temur har vaqt: "Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug'laydi", – degan hikmatli so'zni takrorlashni xush ko'rgan va hayotda o'zlarini bunga amal qilganlar.

Tarixiy asarlarni o'rganarkanmiz, Amir Temur bobomiz amal qilgan quyidagi sifatlarni ko'ramiz:

- ✓ Beg'arazlik;
- ✓ Islomga qat'iy rioxoya qilish;
- ✓ Har bir mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirib, to'g'ri va odilona hal etish;
- ✓ Rahm-shafqatli bo'lish, nohaq ozor yetkazmaslik;
- ✓ Barcha so'zlarda haqiqatga amal qilish;
- ✓ Va'daga vafo;
- ✓ Insofli bo'lish.

Sohibqiron Amir Temurning betakror o'gitlari davlatni boshqarishda, idora etishda, mamlakatda osoyishtalik o'rnatishda, fan va madaniyatni rivojlantirishda, shuningdek, xalqlar o'rtasida buzilmas do'stlik, mehr-shafqat, axloq-odobni tarbiyalashimizda ayni muddaodir.

Sohibqironning oyog'i bosgan joyini yaratgani ham shundan dalolat beradi. U Samarcandni dunyoning eng obod shahriga aylantirib, uning shon-shuhuratini oshirish maqsadida uni dunyoga mashhur shaharlar – Damashq, Bag'dod, Sheroz va Sultoniy nomi bilan atalgan qishloqlar bilan o'rabi oldi.

Amir Temurning hayotlik vaqtida davlat boshqaruvi haqida so'zlovchi "Temur tuziklari" nomli maxsus asar yozilgan. Amir Temur tomonidan yaratilgan markazlashgan, kuchli boshqaruvga ega davlat ushbu bebaho qoidalar majmuasi hisoblanmish kitob asosida yaratilgan. Yirik davlatni yaratib, Amir Temur mamlakatning iqtisodiy va madaniy rivoji uchun sharoitlarni tayyorlagan. O'tgan davrlarning qadimiy an'analari yangi tarixiy ko'rinishda qayta tiklanadi. Yaqin va O'rta sharq bo'ylab Movaraunnahr savdo-sotiq, iqtisod va madaniyat markaziga aylanishi zamirida, Samarcand, Kesh, Buxoro, Termiz, Toshkent, Marv va boshqa qadimiy shaharlar obodonlasha boshlagan. Masjid, madrasa, maqbara, karvon-saroy va hammomlarning katta binolari qad rostlay boshlagan. Har qanday g'alaba me'morchilikda abadiylashishi odatiy holatga aylanib qolgan.

Quruvchilik faoliyatida Amir Temur ma'lum bir siyosiy maqsadlarga amal qilgan u qurdirgan inshootlar sultanatining kuch-qudratini ko'rsatib bera olishi kerak bo'lgan. Boshqaruv yillari davomida Amir Temur feodal tarqoqlikka barham beradi, Fransiya, Angliya, Kastiliya kabi yirik Ovrupa qirolliklari bilan savdo-diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yadi. Amir Temurga har bir zafarli voqeя va sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, bobokalonimiz Amir Temur odob-axloq, iymon\_e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida ham yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymlardan biri hisoblanadi. Aytishimiz mumkinki, Amir Temur davrida ijod va ilm-fan ham davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Sohibqiron Amir Temurning axloq va odob haqidagi qarashlarini quyidagicha o'rganamiz:

- adolat vaadolatsizlik;
- so'z va ishning birligi;
- do'stlik va dushmanlik;
- botirlik va qo'rkoqlig;
- so'z va shirinsuhanlik.

Bu o'gitlarning barchasi Sohibqironning o'z tajribasida sinalgan. Amir Temur "Axloqi husniya, ya'ni yaxshi xulqlar egasi" bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlikka yo'l qo'yagan, balki yetti o'ylab bir kesgan. Amir Temur singari jahon madaniyatida o'z o'rinaliga ega bo'lgan bobokalonlarimizning axloq va go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kunning talabi bilan yozilgandek tuyiladi, go'yo. Bundan tashqari sohibqironning do'stlik va dushmanlik haqidagi fikrlaridan ham keng foydalanishimiz mumkin. Masalan: "Do'stlik – sinovda chiniqadi", "Do'stu dushman bilan murosai-madora qildim", "Shijoatli kishilarni do'st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi", "Farzandlar, qarindoshlar, oshna-og'ayni, qo'shnilar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni davlatu-ne'mat martabasiga erishganimda unutmadi, haqlarini ado etdim", "Do'stu-dushmandan kimki menga iltijo qilib kelgudek bo'lsa, ularga shunday muomala qildimki, ularning dushmanligi do'stlikka aylandi".

Buyuk bobokalonimiz Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari-yu purma'no o'gitlarining har biri oltinga teng bo'lib, ma'no va mazmunan kengligi, mantiqan kuchliligi, teran fikrliliği, ta'sir doirasining chuqurliligi, umuminsoniy qadriyatlar asosida qurilganligi bilan barchamiz uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Amir Temur tarixi " Ibn Arabshox Toshkent 1991 yil
2. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumta'lim maktabidà o'qitish metodlari - T.:O'qituvchi, 1990
3. Yuldashev, O. T. (2020). Development prospects of investment insurance product "Unit-Linked". International Finance and Accounting, 5, 1